

"DUNYO TOMI"DAGI MAXFIY QADAMLAR: BRITANIYA RAZVEDKASI VA "PANDITLAR" LOYIHASI

Bafoyev Jahongir O'tkir o'g'li

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi geosiyosiy raqobat — "Katta o'yin" kontekstida amalga oshirilgan maxfiy "Panditlar" loyihasi tadqiq etiladi. Maqola Britaniya razvedkasining yevropaliklar uchun yopiq bo'lgan Pomir, Afg'oniston va Tibet hududlarini xaritalashtirishda qo'llagan o'ziga xos metodikasini, jumladan, masofani qadamlab o'lchash, niqoblanish va maxfiy asboblardan foydalanish usullarini yoritib beradi. Maqolaning asosiy qismi "ko'rinmas qahramonlardan" biri — Mirza Shujaning Amudaryo bo'ylari va Pomir dovonlaridagi strategik faoliyatiga hamda uning fojiali o'limiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada panditlar tomonidan to'plangan ma'lumotlarning zamonaviy geografiya va kartografiya shakllanishidagi o'rni ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Katta o'yin, Panditlar, Mirza Shuja, Britaniya razvedkasi, Pomir, Amudaryo, xaritalashtirish, Tomas Montgomeri.*

СЕКРЕТНЫЕ ШАГИ НА «КРЫШЕ МИРА»: БРИТАНСКАЯ РАЗВЕДКА И ПРОЕКТ «ПАНДИТЫ»

Аннотация: *В данной статье исследуется секретный проект «Пандиты», осуществленный во второй половине XIX века в контексте геополитического соперничества между Британской и Российской империями в Центральной Азии — «Большой игры». Статья освещает уникальную методику британской разведки по картированию закрытых для европейцев регионов Памира, Афганистана и Тибета, включая способы измерения расстояния шагами, маскировку и использование скрытых инструментов. Основная часть статьи посвящена стратегической деятельности одного из «невидимых героев» — Мирзы Шуджи в верховьях Амударьи и на памирских перевалах, а также его трагической гибели. Также в статье научно обоснована роль данных, собранных пандитами, в формировании современной географии и картографии.*

Ключевые слова: *Большая игра, Пандиты, Мирза Шуджа, Британская разведка, Памир, Амударья, картирование, Томас Монтгомери.*

SECRET STEPS ON THE "ROOF OF THE WORLD": BRITISH INTELLIGENCE AND THE "PUNDITS" PROJECT

Abstract: *This article explores the secret "Pundits" project carried out in the second half of the 19th century in the context of the "Great Game" — the geopolitical rivalry between the British and Russian Empires in Central Asia. The article highlights the unique methodology used by British intelligence to map the regions of the Pamirs, Afghanistan, and Tibet, which were closed to Europeans, including methods of measuring distance by pacing, disguise, and the use of clandestine instruments. The main part of the article is devoted to the strategic activities of one of the "invisible heroes" — Mirza Shuja along the banks of the Amu Darya and the Pamir passes, as well as his tragic death. Additionally, the article provides a scientific basis for the role of the information gathered by the pundits in the formation of modern geography and cartography.*

Keywords: *The Great Game, Pundits, Mirza Shuja, British Intelligence, Pamir, Amu Darya, mapping, Thomas Montgomerie.*

Insoniyat tarixidagi eng yirik geosiyosiy qarama-qarshiliklardan biri bo'lgan "Katta o'yin" davrida Markaziy Osiyoning baland tog' tizmalari va cheksiz cho'llari Britaniya va Rossiya imperiyalari uchun nafaqat geografik hudud, balki strategik hayot-mamot masalasi edi. Ushbu kurashning markazida turgan asosiy muammo esa ma'lumot tanqisligi edi: XIX asrning o'rtalariga kelib ham, Hindistonning shimolidagi hududlar yevropaliklar uchun sirli va xavfli "yopiq kitob" bo'lib qolayotgan edi. Aynan mana shu geografik va siyosiy to'siqni yorib o'tish uchun Britaniya razvedkasi tarixda muqobili bo'lmagan "Panditlar" loyihasini hayotga tatbiq etdi.

"Panditlar" tizimining yaratilishi Britaniya imperiyasining Markaziy Osiyodagi strategik ehtiyojlari bilan bog'liq edi. O'sha davrda Hindiston vitse-qiroli ingliz ofitserlariga chegaradan tashqaridagi xavfli hududlarga (Afg'oniston, Turkiston, Tibet) chiqishni qat'iy taqiqlab qo'ygan edi, chunki yevropaliklarning bu hududlarda paydo bo'lishi diplomatik janjallarga yoki ularning muqarrar o'limiga sabab bo'lar edi. Shunday vaziyatda Hindiston geodeziya xizmati ofitseri, kapitan Tomas Montgomeri o'ziga xos va dadil yechim taklif qildi. U yevropaliklar kira olmaydigan yopiq hududlarni xaritalashtirish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mahalliy hindistonliklardan foydalanish g'oyasini ilgari surdi. Bu ayg'oqchilar guruhiga "Panditlar" (sanskritcha "bilimli inson") deb nom berildi.

Panditlar maxfiy faoliyat talablariga mos ravishda niqoblanish texnikasi hamda boshqalar ishonishi uchun maxsus to'qib chiqilgan hayotiy voqealar (uydurmalar)dan foydalanish ko'nikmalariga puxta o'rgatilgan. Chegara ortidagi yovvoyi o'lkalarda ularning xavfsizligi darvish, ziyoratchi yoki Himolay savdogari rolini qanchalik ishonaarli o'ynay olishlariga bog'liq edi. Ularning niqoblanishi va qiyofalari oylab davom etadigan sayohatlarda, ko'pincha haqiqiy ziyoratchilar va savdogarlar bilan bevosita muloqotda bo'lganda ham chidab berishi kerak edi. Ulardan ba'zilarining ekspeditsiyalari bir necha yilga cho'zilgan. «Osiyo geografiyasi bo'yicha hozirgi kunda har qanday boshqa odamdan ko'ra ko'proq ijobiy bilimlar to'plagan» bir pandit Qirollik Geografiya jamiyatining Oltin medali bilan taqdirlangan birinchi osiyolik bo'ldi. Kamida ikki nafari qaytib kelmadi, yana biri qullikka sotib yuborildi, garchi yakunda u qochishga

muvaqqat bo'lgan bo'lsa-da. Umuman olganda, ushbu maxfiy safarlar shunchalik ko'p geografik ma'lumotlarni taqdim etdiki, bu ma'lumotlar Montgomeri va uning Dextradundagi kartograf hamkasblariga Britaniyaning Markaziy Osiyo xaritalaridagi ko'plab «oq dog'larni» to'ldirish uchun yigirma yilga yetdi.

Montgomeri panditlarga masofani aniq o'lchash va xaritaga tushirishning maxfiy usullarini o'rgatgan. Har bir pandit o'z qadamlarini bir xil uzunlikda (odatda 2000 qadam bir milyaga teng bo'lishi uchun) tashlashga o'rgatilgan. Yozma ma'lumotlar buddistlarning "ibodat g'ildirakchalari" ichiga yashirilgan, chunki bu buyumlar muqaddas sanalgani bois bojxonachilar tomonidan kamdan-kam tekshirilgan. Tog'larning balandligini aniqlash uchun ular suvning qaynash nuqtasini o'lchaydigan maxsus termometrlardan foydalanishgan.

Ko'pincha ular qadimgi Buyuk Ipak yo'lining muqaddas joylarini ziyorat qilishlariga muntazam ruxsat etilgan buddaviy ziyoratchilar qiyofasida sayohat qilishardi. Har bir buddaviy ibodatlarini sanash uchun 108 ta donadan iborat tasbeh, shuningdek yo'l davomida aylantirib boriladigan kichik yog'och va metall ibodat g'ildiraklarini olib yurardi. Montgomeri bu ikkala buyumni ham o'z maqsadlari yo'lida takomillashtirdi. U tasbehdan sakkiz dona donani olib tashladi — bu seziladigan darajada ko'p emas edi, ammo matematik jihatdan qulay va dumaloq 100 soni qoldi. Har yuz qadamdan so'ng pandit go'yoki avtomatik tarzda bitta donani surardi. Shunday qilib, tasbehning har bir to'liq aylanishi 10 000 qadamni tashkil etardi.

Panditlar orasida eng mashhurlaridan biri Mirza Shuja edi. U ziyoratchi, savdogar yoki dervish qiyofasida minglab kilometr masofani piyoda bosib o'tgan. Mirza Shujaning birinchi muhim topshiriqlari Afg'onistonning ichki qismlarini o'rganish bilan bog'liq edi. Ushbu hududlarni o'rganishdan maqsad Britaniya qo'shinlari uchun Hindistondan Afg'onistonga olib boradigan eng qisqa va xavfsiz yo'llarni aniqlash. Natijada u yo'llardagi suv manbalari, oziq-ovqat zaxiralari bo'lishi mumkin bo'lgan qishloqlar va tog' dovonlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati haqida batafsil ma'lumot to'pladi. Bu ma'lumotlar keyinchalik ikkinchi ingliz-afg'on urushi davrida Britaniya qo'mondonligi uchun juda asqotgan.

Mirza Shujaning eng xavfli va strategik ahamiyatga ega safarlaridan biri bu Shimoliy yo'nalish ya'ni, Amudaryo va Pomir dovonlari edi. U Peshovardan yo'lga chiqib, Afg'onistonning shimoliy hududlari orqali Amudaryo (Oxus) bo'ylariga yetib borgan. Shujaning asosiy vazifasi Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Amudaryo bo'ylab qanchalik janubga siljiganini aniqlash edi. U Rossiyaning O'rta Osiyodagi ekspansiyasi Hindiston chegaralariga qanchalik yaqinlashayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib, hisobot berishi kerak edi. U Pomir tog'laridagi "Kichik Pomir" va "Katta Pomir" hududlarini, shuningdek, Vaxon koridorini o'rgangan. Bu hududlar Rossiya va Britaniya imperiyalari o'rtasidagi "hech kimga tegishli bo'lmagan" yerlar hisoblanardi.

1860-yillarning oxirida Mirza Shuja Sharqiy Turkistonga (hozirgi Sinszyan, Xitoy) yo'l oladi. O'sha paytda Yoqubbek boshchiligidagi Qashqar davlati Rossiya va Britaniya o'rtasida katta qiziqish uyg'otayotgan edi. Mirza Shuja bu hududga "savdogar" qiyofasida kirib boradi. Uning vazifasi Yoqubbekning harbiy kuchini baholash va

Rossiya agentlarining u yerdagi ta'sirini o'rganish edi. U Yorkent va Qashqar shaharlari o'rtasidagi masofani aniq qadamlab o'lchab, Britaniya xaritalaridagi ulkan "bo'shliqni" to'ldirdi.

1868-1869-yillarda Mirza Shujaga o'ta muhim vazifa yuklangan edi: u Afg'onistonning shimoli orqali o'tib, Pomir tog'lari va Qashqarni tadqiq qilishi, u yerdan esa Hindistonga qaytishi kerak edi. Bu hududlar o'sha paytda Rossiya va Britaniya imperiyalari o'rtasidagi eng nozik "to'qnashuv nuqtalari" hisoblanardi. Mirza Shuja o'z safari davomida bir guruh mahalliy hamrohlar va xizmatkorlar bilan harakatlanadi. Biroq, u o'zi bilan birga olib ketayotgan pullar va qimmatbaho asboblarning uning hamrohlarida ochko'zlik uyg'otadi. Fojia Afg'onistonning shimolidagi chekka hududda, Qunduz va Badaxshon oralig'idagi xavfli tog'li hududlarda sodir bo'ladi. Piter Xopkrikning yozishicha, Mirza Shuja tunda uxlayotganida o'zining yollanma hamrohlari tomonidan xiyonatkorona hujumga uchraydi. Uni o'z chodirida, uyqu paytida o'ldirishadi. Qotillar uning jasadini yashirishadi va u bilan birga bo'lgan barcha maxfiy xaritalar, kundaliklar va ilmiy asboblarni (sekstantlar, termometrlar) yo'q qilishadi yoki sotib yuborishadi. Britaniya razvedkasi uzoq vaqt davomida Mirza Shujadan xabar kutadi, biroq u belgilangan vaqtda qaytib kelmaydi. Mirza Shujaning taqdiri faqat oradan bir necha yil o'tgach, boshqa bir pandit — Gulam Rabbani tomonidan olib borilgan qidiruvlar natijasida aniqlanadi. Rabbani qotillarning izidan tushib, ularning ba'zilarini topadi va Mirza Shujaning o'ldirilganini tasdiqlovchi dalillarni yig'adi.

Mirza Shujaning o'limi Britaniya razvedkasi uchun katta yo'qotish bo'ldi, chunki u bilan birga Pomir tog'larining eng muhim strategik ma'lumotlari ham yo'qoldi. Shundan so'ng, Britaniya hukumati o'z agentlarining xavfsizligiga yanada jiddiyroq qaray boshladi va yangi panditlarni tayyorlashda "jamoaga bo'lib harakat qilish" uslubiga o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, panditlar "Katta o'yin"ning ko'rinmas qahramonlari edi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ular bir vaqtning o'zida ham kashfiyotchi-olim, ham yuqori malakali josus vazifasini bajarganlar. Bu insonlar o'z hayotlarini doimiy xavf ostiga qo'yib, imperiyalar to'qnashuvida eng qimmatli ma'lumotlarni — hududning "kaliti" bo'lgan xaritalarni taqdim etishgan. Panditlarning maxfiy qadamlari bugungi Markaziy Osiyo geografiyasi va tarixini tushunishda poydevor bo'lib xizmat qilgan. Ularning fojiali, ammo ibratli taqdiri ilmiy izlanish va vatanga sadoqatning noyob namunasi. Bu insonlar imperiyalar o'rtasidagi siyosiy o'yinlar qurboni bo'lgan bo'lsalar-da, ular qoldirgan intellektual meros mintaqa xaritasini shakllantirgan asosiy omil bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hopkirk, Peter. The Great Game: The Struggle for Empire in Central Asia. London: John Murray, 1990.

2. Постников А.В. Схватка на "Крыше Мира": политики, разведчики и географы в борьбе за Памир в XIX веке (монография в документах) / Общая

редакция и предисловие академика В.С. Мясникова. М.: Памятники исторической мысли, 2001.

3. Waller, Derek. The Pundits: British Exploration of Tibet and Central Asia. (Lexington, Kentucky; 1990).

4. Alder, Garry. British India's Northern Frontier 1865–95. London, 1963.

5. Morgan, Gerald. Anglo-Russian Rivalry in Central Asia: 1810-1895. (London, 1981)

6. Royal Geographical Society Archives. Reports on the Explorations of Nain Singh (1868).

7. Survey of India Records, Dehradun, Exploration Series (1865–1885).